

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KAZAKOVA SAXOBAT ODILBEKOVNA

**TURLI ISHLAB CHIQRISH VA KONSTITUTSIYA TIPLARIGA
BOG‘LIQLIKDA SIMMENTAL ZOTLI QORAMOLLARNING
MAHSULDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Kazakova Saxobat Odilbekovna

Turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda simmental zotli qoramollarning mahsuldorligini oshirish yo‘llari 3

Казакова Сахобат Одилбековна

Способы повышения продуктивности крупного рогатого скота симментальской породы в зависимости от различных производственных и конституциональных типов..... 19

Kazakova Saxobat Odilbekovna

Ways to increase the productivity of Simmental cattle depending on various production and constitutional types..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published work..... 41

**QORAKO‘LCHILIK VA CHO‘L EKOLOGIYASI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.12.2019.Qx.75.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KAZAKOVA SAXOBAT ODILBEKOVNA

**TURLI ISHLAB CHIQRISH VA KONSTITUTSIYA TIPLARIGA
BOG‘LIQLIKDA SIMMENTAL ZOTLI QORAMOLLARNING
MAHSULDORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Qx824 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzkarakul.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro'ziboyev Nuraddin Rahimovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Dosmuxamedova Muxayyo Xusnitdinovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Amirov Shavkat Kuzibayevich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD05/30.12.2019.Qx.75.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «20» 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47 uy. Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti majlislar zali, 2-qavat, tel: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (224 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140154, Samarqand, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 47-uy, institut ma'muriy binosi, 1-qavat. Tel: (99866) 233-32-79; faks: (99866) 233-34-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «23» 06 kuni tarqatildi.
(2023-yil «23» 06 dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



E.S.Shaptakov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d. dotsent

Z.S.Klichev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d. (PhD), K.I.X.

D.Xolmirzayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo chorvachiligida qoramolchilik asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha va aholini sut va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda birinchi o'rinni egallaydi. "Chorvachilik sohasi rivojlangan Gollandiya, AQSh, Kanada, Yaponiya, Isroil, Yevropa Ittifoqi davlatlarda qoramollarni to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash, mahsuldorlik, pushtdorlik, texnologik xususiyatlarini takomillashtirib, mahsuldorligi jihatidan yuqori nasldor buqalarning irsiy imkoniyatlaridan foydalanish, asrash sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratilgan. Buning natijasida sutbop podalarda yuqori mahsuldor sigirlarning soni oshishiga hamda mahsuldorligining yaxshilanishiga erishilmoqda"¹. Shu sababli simmental zotli qoramollarning ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplari kesimida mahsuldorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Qoramolchiligi rivojlangan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida tez yetiluvchan sut va go'sht mahsuldorligi bo'yicha yuqori irsiy imkoniyatlarga ega simmental zotli qoramollarni urchitib ko'paytirishga va ularning seleksiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Simmental zotli qoramollar sut va go'sht mahsuldorligini, sut yog'i va oqsili chiqimi, sutdorlik koeffitsientining yuqoriligi, konstitutsiya va eksterer xususiyatlari va ozuqani mahsulot bilan qoplash xususiyatlarining hamda so'yim chiqimining yuqoriligi bilan boshqa qoramol zotlaridan ajralib turadi. Hozirgi kunda aholini sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda, ularning mahsuldorligini oshirish yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda qoramolchilik yetakchi tarmoqlardan bo'lib, ishlab chiqarilayotgan sut va sut mahsulotlari deyarli qoramolchilikdan olinadi. Aholi dasturxonini arzon va sifatli sut va sut mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida keyingi yillarda bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida" "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barovar oshirish, chorvachilikda ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 barovar oshirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash"² kabi vazifalar belgilangan. Respublikamizga xorijdan olib kelingan qoramol zotlarining irsiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish hamda ulardan olinadigan avlodlarda seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, mavjud zotlarni takomillashtirish, mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish, mashinada sog'ish uskunalari moslashuvchan sermahsul sigirlarning sutdor podalarini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplariga bog'liqlikda simmental zotli qoramollarning mahsuldorligini oshirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi.

¹ <http://www.fao.org/docrep/018/i3300e.pdf>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60-сонли Фармони

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi PQ-4243-son “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Simmental zotli qoramollarning mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish, sigirlarning yelin va pushtdorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ularning yuqori mahsuldor podalarini yaratish, zotni irsiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha respublikamizda va xorij davlatlarida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va olingan natijalar amaliyotga joriy etilgan. Xorij olimlari A.F.Shevxujev, D.R.Smakuev, L.G.Xromova, A.V.Vostroilova, N.S.Petkevich, D.N.Kolsov, V.F.Yegorov, I.A.Bogatirova respublikamiz olimlari U.Nosirov, A.Qaharov, M.I.Ashirov, N.R.Ro‘ziboev, Q.J.Shakirov, M.X.Do‘smuxamedovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida simmental zotli qoramollarning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik va texnologik xususiyatlarini takomillashtirish samaradorligi aniqlangan. Ammo ayni paytda, simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligini, eksterer, pushtdorlik va yelinining texnologik xususiyatlarini tana tuzilish xillari va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda yaxshilashning ilmiy asoslari maxsus tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilmagan.

Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar respublikamizda urchitib ko‘paytirilayotgan simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligini, sutining sifat ko‘rsatkichlarini, yelinining morfologik va funksional xususiyatlarini hamda zamonaviy sog‘ish uskunalari yaroqliligini, shuningdek pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilash imkoniyatini beradi. Natijada simmental zotli sigirlardan yuqori mahsuldor sutbop podalar yaratish, zotning mahsuldorligi bo‘yicha irsiy salohiyatidan keng foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 0194513 «Qoramollarning mahsuldorligi va uni sifatini yaxshilash bo‘yicha genetik potensialidan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi tadqiqotlari doirasida bajarilgan (2018-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligini, eksterer, yelin va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tipidagi sigirlarning sut mahsuldorligini aniqlash;

sigirlarning sog'in davrining kechishi va ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlarini aniqlash;

sigirlar yelinining morfologik va funksional xususiyatlarini o'rganish va turli yelin shakllariga bog'liqlikda sigirlarning sut mahsuldorligini aniqlash;

tajriba guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligining tirik vazniga bog'liqligini aniqlash;

turli tana tuzilishga ega sigirlarning ekstereri va tana indekslarini o'rganish;

turli konstitutsiya tipidagi sigirlarning yil fasllari bo'yicha klinik, gemotologik hamda pushtdorlik ko'rsatkichlari aniqlash;

turli konstitutsiyadagi simmental zotli sigirlar avlodlarining tirik vaznining o'zgarishini aniqlash;

tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida simmental zotli III va undan yuqori laktatsiyalardagi sigirlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tipiga ega simmental zotli sigirlarning ekstereri, sut mahsuldorligi va sutining sifati, pushtdorligi, yelinining morfofunktsional xususiyatlari, klinik va gemotologik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqotni bajarishda, sut miqdori, sutdorlik koeffitsienti, 4%li sut miqdori, sutdagi quruq modda va yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i, oqsil chiqimi, yog' chiqimi, 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan mahsulot, ekstereri, tana tuzilish indekslari, laktatsiya egri chizig'i, ozuqalarning sut bilan qoplanishi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashda, zootexniyada umumqabul qilingan usulblardan va "Issiqlikka chidamlilik indeksini aniqlash"da Yu.O.Raushenbax, "Klinik va gemotologik ko'rsatkichlarini aniqlash"da Ye.A.Arzumanyan, "O'rtacha arifmetik qiymat (X), uning xatosi (S_x), o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (C_v), ishonchlilik darajalari (td) va bo'sag'alari (P)" hisoblashda Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturi yordamida Ye.K.Merkureva (1970) usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor issiq iqlim sharoitida simmental zotli sigirlarning maqbul ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplaridan foydalanish orqali sigirlarning mahsuldorligini oshirish yo'llari asoslangan;

mahalliy iqlim sharoitlariga moslashgan sut va sut-go'sht ishlab chiqarish tipidagi simmental zotli sigirlarning sut miqdori, go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi sigirlarnikidan 443,2 kg yoki 9,2% va 129,4 kg yoki 2,3% yuqori bo'lishi isbotlangan;

mustahkam konstitutsiya tipiga ega sigirlar mahalliy iqlim sharoitlariga moslashganligi sababli, ularning laktatsiya davomidagi sut miqdori, dag'al konstitutsiyadagi sigirlarinikidan 346,2 kg, sut yog'i chiqimi 12 kg, sut oqsili chiqimi 13,6 kg, 4%-li sut miqdori 298,2 kg yuqori bo'lganligi aniqlangan;

mustahkam konstitutsiya tipidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning tirik vazni, dag'al konstitutsiya tipidagi tengqurlarnikiga nisbatan 12 oylikda 6,2 kg, 15 oylikda 8,1 kg va 18 oylik yoshida 11,1 kg yuqori bo'lganligi, bu avlodlardan kelgusida sudor podalarda foydalanishda muhimligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotlarda naslchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida sof zotli urchitishda turli tana tuzilish va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda sigirlarning sut mahsuldorlik xususiyatlari o‘rganilib baholangan;

yetuk yoshdagi simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligi zot andoza talablaridan sut tipida sut miqdori-2173,8 kg va sut yog‘i chiqimi-95,1 kg, sut-go‘sht tipida tegishli ravishda 1860 kg va 83,8 kg; go‘sht-sut tipida 1730,6 kg va 79,0 kg ga yuqoriligi isbotlangan;

mustahkam konstitutsiya tipiga ega sigirlar 100 kg tirik vaznga yaxshi darajada sut mahsulotini ham ishlab chiqardilar. Mustahkam konstitutsiyadagi sigirlarning sutdorlik koeffitsienti 895,5 kgni tashkil etib, dag‘al konstitutsiya tipidagi tengqurlarnikidan 52,8 kg yoki 6,3% ga, har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan 4%-li sut miqdori 298,2 kg yoki 6,2% yuqori bo‘lganligi aniqlangan;

tadqiqotlarda turli konstitutsiya tiplariga xos sigirlardan yetishtirilgan avlodlardan podani qayta to‘ldirishda foydalanish samarali ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy uslub va vositalardan foydalanilganligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zootsiyalar fakulteti aprobatatsiya komissiyalari tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari va birlamchi hujjatlarga ijobiy baho berilganligi, barcha eksperimental ma‘lumotlarning statistik tahlildan o‘tkazilganligi, olingan ilmiy natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi dalolatnomalar bilan tasdiqlanganligi va ilmiy-tadqiqot natijalari yetakchi ilmiy va ilmiy-amaliy nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor respublikamizning issiq iqlim sharoitida simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, eksterer, pushtdorlik, yelinining morfofunksional xususiyatlarini yaxshilashda sigirlarning ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplarini hisobga olish yo‘llari ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish orqali, maqbul ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda simmental zotli qoramol podalarini sermahsul sigirlar bilan to‘ldirishda, sigirlarning sut mahsuldorligini, eksterer, pushtdorlik, yelinining morfofunksional xususiyatlarini yaxshilanishiga erishilgan va shu asosda tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplariga bog‘liqlikda simmental zotli sigirlarning mahsuldorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

mahalliy sharoitda urchitib ko‘paytirilayotgan simmental zotli sut ishlab chiqarish tipiga xos sigirlar mahsuldorligini oshirish usuli Buxoro viloyati Romitan tumanidagi “Hamro To‘xta” nomli naslchilik fermer xo‘jaligida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2023 yil 6 fevraldagi 02/23-39-son ma‘lumotnomasi). Sut ishlab chiqarish tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda

7753,2 ming (yetti million yetti yuz ellik uch ming ikki yuz) soʻmni, rentabellik darajasi 33,4% (oʻttiz uch butun oʻndan toʻrt foiz) ni tashkil etgan;

mahalliy sharoitda urchitib koʻpaytirilayotgan simmental zotli sut-goʻsht ishlab chiqarish tipiga xos sigirlar mahsuldorligini oshirish usuli Buxoro viloyati Qorakoʻl tumanidagi “Uneversal-5” MChJ naslchilik xoʻjaligida joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qoʻmitasining 2023 yil 6 fevraldagi 02/23-39-son maʼlumotnomasi). Natijada sut-goʻsht ishlab chiqarish tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 6706,1 ming (olti million yetti yuz olti ming bir yuz) soʻmni, rentabellik darajasi 30,4% (oʻttiz butun oʻndan toʻrt foiz) ni tashkil etgan;

mahalliy sharoitda urchitib koʻpaytirilayotgan simmental zotli mustahkam konstitutsiya tipiga xos sigirlar mahsuldorligini oshirish usuli Buxoro viloyati Olot tumanidagi “Zokir-Zarif” naslchilik fermer xoʻjaligida joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qoʻmitasining 2023 yil 6 fevraldagi 02/23-39-son maʼlumotnomasi). Natijada mustahkam konstitutsiya tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 7199,4 ming (yetti million bir yuz toʻqson toʻqqiz ming toʻrt yuz) soʻmni, rentabellik darajasi 32,1% (oʻttiz ikki butun oʻndan bir foiz) ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari Buxoro viloyati Romitan tumanidagi “Hamro Toʻxta” naslchilik fermer xoʻjaligida ishlab chiqarish yigʻilishlarida (2020-2022 yy.), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qoʻmitasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zootsiyalar fakultetining aprobatsiya komissiyasi (18.06.2022y) tomonidan “Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va koʻpaytirish” kafedrasining kengaytirilgan yigʻilishida (07.10.2022) hamda 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari toʻplamlarida 6 ta, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda maqolalar chop qilingan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi, kirish, toʻrtta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obʻekti va predmeti tavsiflangan, uning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mavofiqligi bayon etilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarning simmental zotining tavsifi va undan sermahsul sudor podalar yaratishda foydalanish, sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda maqbul ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplarining ahamiyati, eksterer, yelinining morfologik va funksional ko‘rsatkichlari, klinik va gemotologik ko‘rsatkichlari, pushtdorlik xususiyatlariga bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy izlanishlarning natijalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotni o‘tkazish joyi va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot manzili va manbai, tadqiqotni bajarish uslublari yoritilgan. Ilmiy tadqiqot ishlarining tajriba qismi 2020-2022 yillarda Buxoro viloyati Romitan tumanidagi “Hamro To‘xta” nomli naslchilik fermer xo‘jaligida bajarilgan. Tadqiqot ob‘ekti sifatida xo‘jalikda urchitilayotgan simmental zotli III va undan yuqori laktatsiyalardagi sigirlar tanlangan. Tadqiqotlar davomida tajriba guruhlaridagi sigirlarning oziqlantirish sharoitlari, sut mahsuldorligi, eksterer xususiyatlari, sigirlarning sudorlik koeffitsienti, ozuqani mahsulot bilan qoplash xususiyatlari, yil fasllariga muvofiq klinik va gemotologik ko‘rsatkichlari, sigirlar yelinining morfologik va funksional xususiyatlari va yelin shakllariga bog‘liqlikda sut mahsuldorligi, sigirlar avlodlarining tirik vaznining davrlar bo‘yicha o‘zgarishi, tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash, tajribada olingan ma‘lumotlarga biometrik ishlov berishda qo‘llaniladigan usul va uslublari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Sigirlarning mahsuldorlik xususiyatlariga ishlab chiqarish tiplarining ta‘siri”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba guruhidagi sigirlarni oziqlantirish, turli ishlab chiqarish tipidagi sigirlarning sut mahsuldorligi, eksterer ko‘rsatkichlari, yil fasllari bo‘yicha klinik va pushtdorlik xususiyatlari bo‘yicha ma‘lumotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Simmental zotli sigirlarning laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligi, ularning ishlab chiqarish tiplariga bog‘liq ekanligi 1-jadvalda keltiriladi.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinishicha, laktatsiyasining 305 kunlik davridagi I guruhdagi sut ishlab chiqarish tipiga xos sigirlarning sut miqdori 5273,8 kg ni tashkil etib, II guruhda sut-go‘sh t ishlab chiqarish tipidagi sigirlarnikidan 313,8 kg ($P>0,01$) va III guruhdagi go‘sh-t sut ishlab chiqarish tipidagi tengqurlarnikidan 443,2 kg ($P>0,001$), sut yog‘i chiqimi tegishli ravishda 11,3 kg ($P>0,01$) va 16,1 kg ($P>0,001$), sut oqsili chiqimi 10,35 kg ($P>0,01$) va 14,85 kg ($P>0,001$), 4% li sut miqdori 282,9 kg ($P>0,01$) va 401,5 kg ($P>0,001$) yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Eksterer hayvonlar tanasining tashqi tuzilish shakli bo‘lib, u biologik chidamlilik va sut mahsuldorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ekstererga baho berilganda, sigirlarning mahsuldorlik yo‘nalishlari bo‘yicha har bir tana qismlariga qo‘yilgan talablar e‘tiborga olinadi, shuning uchun ularning mahsuldorlik yo‘nalishlarini baholashda tana o‘lchamlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi (2-jadval).

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning sut mahsuldorligi, n=10

Ko'rsatkichlari	I		II		III	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Sut miqdori, kg	5273,8±68,91	4,13	4960,0±58,12**	3,71	4830,6±41,87***	2,74
Sut yog'i, %	4,04±0,02	1,86	4,07±0,03	2,51	4,08±0,03	2,23
Sut oqsili, %	3,64±0,02	2,04	3,67±0,03	2,62	3,67±0,03	2,21
Sut yog'i chiqimi, kg	213,1±3,08	4,58	201,8±1,70**	2,66	197,0±1,14***	1,83
Sut oqsil chiqimi,kg	192,05±2,81	4,63	181,7±1,55***	2,70	177,2±1,04***	1,85
4% li sut miqdori	5326,7±77,07	4,58	5043,8±42,47***	2,66	4925,2±28,44***	1,83

P≤0,01, *P≤0,01

2-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana o'lchamlari, sm

Tana o'lchamlari	Guruhlar					
	I		II		III	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Yag'rin balandligi	139,2±2,05	4,66	137,3±1,21*	2,79	135,7±1,19**	2,78
Sag'ri balandligi	142,5±1,56	3,46	140,5±1,28*	2,89	139,0±1,31**	2,99
Ko'krak kengligi	51,7±1,91	11,69	50,9±1,64*	10,19	50,4±1,51*	9,50
Ko'krak chuqurligi	68,7±2,25	9,87	67,3±0,87**	4,10	68,3±1,19*	5,51
Tananing qiya uzunligi	167,2±2,75	5,08	162,6±2,69***	5,23	161,6±2,69***	5,26
Ko'krak aylanasi	202,8±2,11	3,29	201,6±1,82*	2,86	203,2±1,34*	2,09
Orqa do'ng suyak eni	52,3±0,52	3,16	51,0±0,45**	2,77	50,2±0,57**	3,58

2-jadvalda sigirlarning tana qismlarining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi asosiy tana o'lchamlari yuqori sut mahsuldorligiga ega sigirlarda namoyon bo'ldi.

Masalan, II va III guruhlardagi sigirlarning yag'rin balandligiga nisbatan I guruhdagi sigirlarning yag'rin balandligi tegishli ravishda 1,9 sm ($P \leq 0,05$) va 3,5 sm ($P \leq 0,01$), sag'ri balanligi 2,0 sm ($P \leq 0,05$) va 3,5 sm ($P \leq 0,01$), ko'krak kengligi 0,8 sm ($P \leq 0,05$) va 1,3 sm ($P \leq 0,01$), ko'krak chuqurligi 4,9 sm ($P \leq 0,01$) va 3,9 sm ($P \leq 0,05$), tananing qiya uzunligi 8,6 ($P \leq 0,01$) va 9,6 sm ($P \leq 0,01$), orqa do'ng suyak eni 2,3 sm ($P \leq 0,01$) va 2,1 sm ($P \leq 0,01$) yuqori bo'ldi. Shuning bilan birga III guruhdagi sigirlarning ko'krak aylanasi I va II guruhlardagi sigirlarnikiga nisbatan 0,4 sm ($P \leq 0,05$) va 1,6 sm ($P \leq 0,01$), ko'krak chuqurligi esa II guruhlardagi sigirlarnikiga nisbatan 1,0 sm ($P \leq 0,05$) yuqori bo'ldi.

Sigirlardan har yili naslli avlodlar olish va ularning sut mahsuldorligi pushtdorlik xususiyatlarining talab darajasida bo'lishiga bog'liq va u sut ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydigan muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning pushtdorlik xususiyatlari 3-jadvalda aks etgan.

3-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning pushtdorlik xususiyatlari (n=10)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$
Birinchi otalanishdagi yoshi, kunlar	505,4 \pm 1,54	0,97	511,5 \pm 1,77*	1,09	517,7 \pm 1,73***	1,05
Birinchi otalanishdagi tirik vazni, kg	384,5 \pm 1,40**	1,15	372,6 \pm 1,07	0,91	378,4 \pm 1,88*	1,57
Bo'g'ozlikning davomiyligi, kunlar	284,1 \pm 0,43	0,48	283,6 \pm 0,64	0,71	282,9 \pm 0,31	0,35
Birinchi tug'ishdagi yoshi, kunlar	789,5 \pm 1,84	0,74	795,1 \pm 1,81*	0,72	800,6 \pm 1,73**	0,68
Birinchi tug'ishdagi tirik vazni, kg	488,2 \pm 1,05***	0,68	473,4 \pm 1,20	0,80	483,5 \pm 0,94	0,61
Servis davri davomiyligi, kunlar	78,3 \pm 0,50***	2,00	81,2 \pm 0,99	3,84	82,5 \pm 0,99	3,80
Tug'ishlar orasidagi davr, kunlar	362,4 \pm 0,69	0,60	364,8 \pm 0,90	0,78	364,4 \pm 0,75	0,65
1-qochirishdagi otalanish darajasi, %	73	-	70	-	68	-
Qochirish indeksi	1,4	-	1,6	-	1,7	-

* $P \leq 0,05$, ** $P \leq 0,01$, *** $P \leq 0,01$


3-jadvaldan ko'rinishicha, II va III guruh sigirlarning birinchi otalanishdagi yoshi (kun hisobida) I guruhdagi tengqurlarnikiga nisbatan o'rtacha 6,1 kun ($P \leq 0,05$) va 12,3 kunga ($P \leq 0,01$) ko'p bo'ldi, birinchi otalantirishdagi tirik vazni esa II guruh sigirlariga nisbatan I va III guruh sigirlarda 11,9 kg yoki 3,2% ($P \leq 0,01$) va 5,8 kg yoki 1,6% ($P \leq 0,05$) yuqori bo'ldi.

Tadqiqotlarda sigirlarning servis-davri davomiyligini o'rganish sigirlarning pushtdorlik xususiyatlarini aniqlashda asosiy omillardan biri ekanligidan dalolat

beradi, tajriba guruhlarida I tajriba guruhidagi sigirlarning servis-davri davomiyligi 78,3 kunga teng bo‘lib, II va III guruhlardagi tengqurlarnikidan 2,9 ($P \leq 0,01$) va 4,2 kunga ($P \leq 0,01$) kam bo‘ldi. I tajriba guruhidagi sigirlarning 1-qochirishdagi otalanish darajasi II va III guruhdagi tengqurlarnikiga nisbatan 3,0 va 5,0% ga yuqori bo‘ldi va qochirish indeksi esa tegishli ravishda 0,2 va 0,3 birlikka kam bo‘ldi. Sut tipiga ega sigirlarning birinchi otalanishdagi yoshi, sut-go‘sh t va go‘sh t-sut tipiga ega sigirlarnikiga nisbatan 6,1 va 12,3 kunga kam bo‘ldi, shuning bilan birga, birinchi otalantirishdagi tirik vazni esa sut-go‘sh t xilidagi sigirlarga nisbatan, sut va go‘sh t-sut tana tuzilish xiliga ega sigirlarda 11,9 kg va 5,8 kg yuqori bo‘ldi.

Dissertatsiyaning “**Turli konstitutsiya tipidagi sigirlarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli konstitutsiya tipiga ega sigirlarning sut mahsuldorligi, sut mahsuldorligining tirik vazniga bog‘liqligi, sigirlar yelinining morfologik va funksional xususiyatlari, turli yelin shakliga ega sigirlarning sut mahsuldorligi, yil fasllari bo‘yicha gemotologik ko‘rsatkichlari, asosiy seleksiya belgilari o‘rtasida korrelyatsiya koeffitsientlari, turli konstitutsiyadagi simmental zotli sigirlar avlodlarining tirik vaznining o‘zgarishi va tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi bayon qilingan.

1-rasmda turli konstitutsiya tipidagi sigirlarning suti va 4%-li sut miqdori keltiriladi. Mustahkam konstitutsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorligi dag‘al konstitutsiyadagi sigirlarning mahsuldorligidan yuqori darajada bo‘lgan farqi ko‘zga yaqqol tashlanadi.



1-rasm. Turli konstitutsiya tipiga ega sigirlarning sut mahsuldorligi

Mustahkam konstitutsiya tipiga ega II guruh sigirlarining laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligi dag‘al konstitutsiyadagi I guruh sigirlarnikidan sut miqdori 346,2 kg yoki 7,4% ($P \leq 0,01$), 4%-li sut miqdori 298,2 kg yoki 6,2% ($P \leq 0,01$) yuqori bo‘ldi.

Sut miqdori bo‘yicha o‘zgaruvchanlik koeffitsienti II guruhda I guruhga nisbatan 0,19 % yuqori bo‘ldi, bu esa ushbu guruhda mazkur belgi bo‘yicha tanlash imkoniyati kengligidan dalolat beradi.

Turli konstitutsiya tiplariga ega simmental zotli sigirlarning har 100 kg tirik vazni hisobiga sut mahsuldorligini o‘rganish, sigirlardan xo‘jalikda foydalanish samaradorligini oshirishda va sudor podalar yaratishda muhim amaliy ahamiyatga

ega bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda turli konstitutsiyaga mansub sigirlarning har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut mahsuldorligini o‘rgandik, uning natijalari 4-jadvalda keltiriladi.

4-jadval

Turli konstitutsiya tipiga xos sigirlarning har 100 kg tirik vazniga sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Tirik vazni, kg	556,7±4,70*	3,27	562,4±4,83	3,33
Sog‘ib olingan sut miqdori, kg	4690,3±45,11***	3,72	5036,5±50,83	3,91
4%-li sut miqdori, kg	4810,6±32,52***	2,62	5108,8±30,84	2,34
Sutdorlik koeffitsienti, kg	842,7±6,26***	2,88	895,5±3,95	1,71
<i>Har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarildi:</i>				
4%-li sut miqdori, kg	864,6±6,90***	3,09	908,7±3,76	1,60
Sut yog‘i chiqimi, kg	34,6±0,28**	3,09	36,3±0,15	1,60
Sut oqsili chiqimi, kg	31,1±0,25**	3,10	32,7±0,13	1,58

*P≤0,05, **P≤0,01, ***P≤0,001

Jadval ma‘lumotlarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, II guruh sigirlarining tirik vazni I guruhdagi sigirlar tirik vaznidan o‘rtacha 5,7 kg (P≤0,05) yuqori bo‘ldi. Mustahkam konstitutsiya tipiga ega sigirlar yuqori sut mahsuldorligi bilan birga, har 100 kg tirik vazniga yaxshi darajada sut mahsulotini ham ishlab chiqardilar. Masalan, II guruh sigirlarning sutdorlik koeffitsienti I guruhdagi sigirlar sutdorlik koeffitsientidan 52,8 kg yoki 6,3% ga (P≤0,01), har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan 4%-li sut miqdori 298,2 kg yoki 6,2% (P≤0,01), sut yog‘i chiqimi 1,7 kg (P≤0,01), sut oqsili chiqimi 1,6 kg (P≤0,01) yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Sigirlarning mashinada sog‘ish uskunalariga moslashganligini baholashda ularning turli yelin shakllariga bog‘liqlikda sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini o‘rgandik, uning natijalari 5-jadvalda keltiriladi.

Jadval ma‘lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, tossimon yelin shaklga ega II guruhdagi sigirlarning laktatsiya davomidagi sut miqdori 5260,3 kg tashkil etib, bu ko‘rsatkich I guruhdagi tengqurlarnikiga nisbatan 317 kg yoki 6,4% ga, sut yog‘i chiqimi tegishli ravishda 11,4 kg yoki 5,8%, sut oqsili chiqimi 10,2 kg yoki 5,7%, 4% li sut miqdori 284,5 kg yoki 5,7% yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Kosasimon yelin shakliga ega II tajriba guruhidagi sigirlarning laktatsiya davomidagi sut miqdori dag‘al konstitutsiyaga ega tengdoshlarnikiga nisbatan 257,4 kg yoki 5,5%, sut yog‘i chiqimi 9,2 kg yoki 4,8%, sut oqsili chiqimi 8,1 kg yoki 4,7%, 4%-li sut miqdori 231,6 kg yoki 4,8% yuqori bo‘ldi.

Dumaloq yelin shakliga ega mustahkam konstitutsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Masalan, I guruhdagi sigirlarga nisbatan II guruhdagi sigirlarning laktatsiya davomidagi sut miqdori 251,4 kg (5,6%), sutdagi yog‘ 0,02%, sutdagi oqsil 0,01%, sut yog‘i chiqimi 11,1 kg (5,9%), sut oqsili chiqimi 9,1 kg (5,4%), 4%-li sut miqdori 277,2 kg (5,9%) ga yuqoriligi aniqlandi.

5-jadval

Tajriba guruhlarida turli yelin shakllariga ega sigirlarning sut mahsuldorligi ($\bar{X} \pm S_x$)

Ko'rsatkichlar	Tossimon		Kosasimon		Dumaloq	
	I	II	I	II	I	II
Bosh soni	3	5	7	8	5	2
Sut miqdori, kg	4943,3±66,48	5260,3±16,16	4706,7±35,63	4964,1±42,20	4515,6±6,53	4767,0±12,00
Sutdagi yog', %	4,01±0,04	3,98±0,01	4,10±0,03	4,08±0,02	4,16±0,02	4,18±0,02
Sutdagi oqsil, %	3,61±0,03	3,58±0,01	3,69±0,03	3,66±0,02	3,74±0,01	3,75±0,02
Sut yog'i chiqimi, kg	198,2±0,82	209,6±0,21	193,2±1,82	202,4±1,28	187,9±0,62	199,0±1,69
Sut oqsili chiqimi, kg	178,2±0,69	188,4±0,26	173,7±1,35	181,8±1,17	169,0±0,52	178,1±1,40
4%-li sut miqdori, kg	4954,4±20,42	5238,9±5,28	4829,2±45,57	5060,8±31,90	4698,4±15,61	4975,6±42,32

Tadqiqotlarda konstitutsiya tipidan qat'iy nazar barcha tajriba guruhlaridagi tossimon yelin shakliga ega sigirlarning sut mahsuldorligi, boshqa guruhlardagi kosasimon va dumaloq yelin shakliga ega sigirlarnikidan yuqoriligi aniqlandi. Mustahkam konstitutsiyadagi tossimon yelin shakliga ega sigirlarning sut miqdori kosasimon yelin shaklidagi tengqurlarnikidan 296,2 yoki 6,0%, sut yog'i chiqimi tegishli ravishda 7,2 kg (3,6%), sut oqsili chiqimi 6,6 kg (3,6%), 4%-li sut miqdori 178,1 kg (3,5%), dumaloq yelin shakliga ega sigirlarda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 493,3 kg (10,3%); 10,6 kg (5,3%); 10,3 kg (5,8%); 263,3 kg (5,3%) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Sigirlar yelinining funksional xususiyatlarini o'rganish ularning sut mahsuldorlik darajasini belgilaydi. Biz turli konstitutsiya tiplaridagi sigirlar yelinining funksional xususiyatlarini o'rganib, tahlil qildik. Uning natijalari 6-jadvalda keltiriladi.

6-jadval

Sigirlar yelinining funksional ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	I guruh	II guruh
Kunlik o'rtacha sut miqdori, kg	15,37±0,4	16,51±0,5**
Sog'ish davomiyligi, daqiqa	9,12±0,1	9,07±0,1
Sut berish tezligi, kg/daqiqa	1,68±0,2	1,82±0,4**
Yelin indeksi, %	42,4±0,3	43,7±0,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, yuqori kunlik o'rtacha sut miqdoriga mustahkam konstitutsiyadagi sigirlar erishdilar. Masalan, II guruh sigirlarining kunlik sut sog'imi I guruhdagi dag'al konstitutsiyaga ega sigirlarnikiga nisbatan 1,14 kg ($P \leq 0,01$), sut berish tezligi 0,14 kg/daqiqa ($P \leq 0,01$) va yelin indeksi 1,3% ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Sigirlarning sog'ish davomiyligi, sut berish tezligini yuqoriligini ta'minlovchi asosiy jihatlaridan biri sigirlar yelinining to'rtta bo'lagining bir xilda rivojlanishi bu-yelin indeksidir.

Turli konstitutsiyadagi sigirlardan tug'ilgan avlodlarning davrlar bo'icha tirik vazn ko'rsatkichlarining o'zgarishini o'rgandik, uning natijalari 7-jadvalda keltiriladi.

Turli konstitutsiyadagi sigirlardan tug‘ilgan avlodlarning tirik vaznining oylar bo‘yicha o‘zgarishi

Yoshi, oy	Guruhlar (n=12)			
	I		II	
	X ± Sx	Cv,%	X ± Sx	Cv,%
Tirik vazni, kg				
Tug‘ilganda	34,0±0,54	5,47	33,8±0,46	4,75
3	97,6±0,94	3,34	98,2±0,94*	2,30
6	164,3±2,43	5,13	165,8±2,09*	4,37
12	281,2±2,94	3,62	287,4±2,26**	2,73
15	329,2±3,80	4,00	337,3±4,73***	4,86
18	377,5±4,99	4,58	388,6±3,30***	2,95
Mutloq o‘shish, kg				
0-3	63,6±13,91	6,82	64,4±11,80	5,71
3-6	56,7±30,87	14,43	57,6±26,82	12,37
6-12	106,9±19,01	10,14	111,6±9,13	4,68
12-15	48,0±30,61	19,88	49,9±49,86	31,19
15-18	48,3±67,15	43,31	51,3±68,73	41,74
0-18	323,5±9,33	5,08	334,8±6,03	3,08

*P≤0,05,**P≤0,01,***P≤0,01

Ushbu jadval ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, mustahkam konstitutsiyadagi sigirlardan tug‘ilgan buzoqlarning tirik vazni dag‘al konstitutsiyadagi tengqurlarnikiga nisbatan 3 oylik yoshida 0,6 kg (P≤0,05), 6 oylikda 1,5 kg (P≤0,05), 12 oylikda 6,2 kg (P≤0,01), 15 oylikda 8,1 kg (P≤0,01), va 18 oylik yoshida 11,1 kg (P≤0,01) yuqori bo‘ldi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mustahkam konstitutsiyadagi sigirlardan tug‘ilgan buzoqlarning mutlaq o‘shishi, dag‘al konstitutsiyadagi sigirlardan tug‘ilgan tengqurlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 0-3 oyida 0,8 kg; 3-6 oyida 0,9 kg; 6-12 oyda 4,7 kg; 12-15 oylarda 1,9 kg; 15-18 oylarda 3,0 kg; tug‘ilgandan 18 oylik yoshlarigacha 11,3 kg yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Sut ishlab chiqarish tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 7753,2 ming so‘mni, rentabellik darajasi 33,4 foizni va sut-go‘sh t ishlab chiqarish tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 6706,1 so‘mni, rentabellik darajasi 30,4 foizga teng bo‘ldi.

Mustahkam konstitutsiya tipidagi 1 bosh sigirdan laktatsiya davomida o‘rtacha 5407,6 kg bazis yog‘lilikdagi sut sog‘ib olindi, dag‘al konstitutsiyadagi tengdoshlarnikidan 347 kg sut kup sog‘ib olindi. Mustahkam konstitutsiya tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 7199,4 so‘mni, rentabellik darajasi 32,1 foizni tashki etdi.

XULOSALAR

1. Sut ishlab chiqarish tipiga xos sigirlarning sut miqdori 5273,8 kg ni tashkil etib, sut-go'sht ishlab chiqarish tipidagi sigirlarnikidan 313,8 kg ($P>0,01$) va go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi tengqurlarnikidan 443,2 kg ($P>0,001$), sut yog'i chiqimi tegishli ravishda 11,3 kg ($P>0,01$) va 16,1 kg ($P>0,001$), sut oqsili chiqimi 10,35 kg ($P>0,01$) va 14,85 kg ($P>0,001$), 4% li sut miqdori 282,9 kg ($P>0,01$) va 401,5 kg ($P>0,001$) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

2. Ishlab chiqarish tiplaridan qat'iy nazar sigirlarning III va undan yuqori laktatsiyadagi sut miqdori simmental zotli yetuk yoshdagi sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha zot andoza talablaridan sut tipida 2173,8 kg, sut-go'sht 1860 kg va go'sht-sut 1730,6 kg, sut tarkibidagi yog' tegishli ravishda 0,24; 0,27 va 0,28 %, sut yog'i chiqimi esa 95,1; 83,8 va 79 kg ga yuqori bo'ldi.

3. Laktatsiyasining birinchi 90 kuni davomida barcha guruhlardagi sigirlar 1781 kg, 1926 kg sut miqdoriga ega bo'lib, laktatsiya davomida sog'ib olinadigan sutning 36,5-36,8% ni tashkil etdi. Bu barcha tajriba guruhlaridagi sigirlarning dastlabki 90 kuni mobaynidagi sut miqdori talab darajada ekanligini hamda sut miqdorining pasayish indeksi ham bir tekis bo'lganligi bilan izohlanadi.

4. Sigirlar laktatsiya davomida yaxshi darajada ozuqani sut mahsuloti bilan qoplaganligi bilan tavsiflandilar va shuning bilan birga 4%-li sut miqdori ham yuqori bo'lib, sut ishlab chiqarish tipiga ega sigirlar sut-go'sht va go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi tengqurlarnikiga nisbatan, 1 kg tabiiy sut ishlab chiqarishga 0,02 yoki 2,13% va 0,04 yoki 4,25% kam ozuqa birligi sarflandi, shuningdek, 1 kg 4%-li sut uchun sarflangan ozuqa birligi ham 0,01 yoki 1.1% va 0,03 kg yoki 3.12% ga kam bo'lganligi aniqlandi.

5. Tana o'lchamlari bo'yicha, sut-go'sht va go'sht-sut ishlab chiqarish tipiga xos sigirlarning yog'rin balandligiga nisbatan sut ishlab chiqarish tipidagi sigirlarning yog'rin balandligi tegishli ravishda 1,9 sm ($P\leq 0,05$) va 3,5 sm ($P\leq 0,01$), sag'ri balandligi 2,0 sm ($P\leq 0,05$) va 3,5 sm ($P\leq 0,01$), ko'krak kengligi 0,8 sm ($P\leq 0,05$) va 1,3 sm ($P\leq 0,01$), ko'krak chuqurligi 4,9 sm ($P\leq 0,01$) va 3,9 sm ($P\leq 0,05$), tananing qiya uzunligi 8,6 ($P\leq 0,01$) va 9,6 sm ($P\leq 0,01$), orqa do'ng suyak eni 2,3 sm ($P\leq 0,01$) va 2,1 sm ($P\leq 0,01$) yuqori bo'ldi. Shuning bilan birga barcha tajriba guruhlaridagi sigirlar yaxshi rivojlangan cho'ziluvchanlik, ko'krakdorlik va suyakdorlik indekslariga ega bo'ldilar, bu sigirlar mutanosib tana tuzilishiga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

6. Yil fasllaridan va turli tana tuzilish xillaridan qat'iy nazar, barcha guruhlardagi sigirlarning tana harorati, 1 daqiqada yurak urishi va nafas olish ko'rsatkichlari fiziologik me'yor darajada bo'ldi va guruhlararo sezilarli farq kuzatilmadi. Bu simmental zotli sigirlarning yil fasllari bo'yicha klinik ko'rsatkichlari me'yor darajada bo'lganligini hamda mahsuldorlik xususiyatlarini saqlab qolishi kuzatildi.

7. Sut tana xiliga ega sigirlarning birinchi otalanishdagi yoshi, sut-go'sht va go'sht-sut tana xiliga ega sigirlarnikiga nisbatan 6,1 va 12,3 kunga kam bo'ldi, shuning bilan birga, birinchi otalantirishdagi tirik vazni esa sut-go'sht xilidagi

sigirlarga nisbatan, sut va go'sht-sut tana tuzilish xiliga ega sigirlarda 11,9 kg va 5,8 kg yuqori bo'ldi.

8. Mustahkam konstitutsiya tipiga ega II guruh sigirlarining laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligi dag'al konstitutsiyadagi I guruh sigirlarnikidan sut miqdori 346,2 kg yoki 7,4% ($P \leq 0,01$), sut yog'i 0,02% ($P \leq 0,05$), sut oqsili 0,04% ($P \leq 0,05$), sut yog'i chiqimi 12 kgyoki 6,2% ($P \leq 0,01$), sut oqsili chiqimi 13,6 kg yoki 7,8% ($P \leq 0,01$), 4%-li sut miqdori 298,2 kg yoki 6,2% ($P \leq 0,01$) yuqori bo'ldi.

9. Mustahkam konstitutsiya tipiga ega sigirlar yuqori sut mahsuldorligi bilan birga, har 100 kg tirik vaznga yaxshi darajada sut mahsulotini ham ishlab chiqardilar. Mustahkam konstitutsiyadagi sigirlarning sutdorlik koeffitsienti 895,5 kgni tashkil etib, dag'al konstitutsiya tipidagi tengqurlarnikidan 52,8 kg yoki 6,3% ga ($P \leq 0,01$), har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan 4%-li sut miqdori 298,2 kg yoki 6,2% ($P \leq 0,01$), sut yog'i chiqimi 1,7 kg ($P \leq 0,01$), sut oqsili chiqimi 1,6 kg ($P \leq 0,01$) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

10. Kosasimon yelin shakliga ega mustahkam konstitutsiyadagi sigirlarining yelin o'lchamlariga nisbatan II guruhdagi sigirlarni yelin aylanasi 1,0 sm ($P \leq 0,01$), yelin uzunligi 1,1 sm ($P \leq 0,01$), yelin eni 0,7 sm ($P \leq 0,05$), oldingi qismi chuqurligi 0,9 sm ($P \leq 0,01$), orqa qismi chuqurligi 1,1 sm ($P \leq 0,01$), oldingi so'rg'ichlar uzunligi 0,05 sm, orqa so'rg'ichlar uzunligi 0,01 sm, so'rg'ichlar diametri 0,01 sm ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Shuning bilan birga, yuqori kunlik o'rtacha sut miqdoriga mustahkam konstitutsiyadagi sigirlar erishdilar, sigirlarining kunlik sut sog'imi dag'al konstitutsiyaga ega sigirlarnikiga nisbatan 1,14 kg ($P \leq 0,01$), sut berish tezligi 0,14, kg/daqqa ($P \leq 0,01$) va yelin indeksi 1,3% ga yuqori bo'ldi.

11. Yil fasllaridan qat'iy nazar barcha guruhlardagi sigirlar qonidagi eritrotsitlar, leykotsitlar va gemogloblin miqdori fiziologik me'yor darajada bo'ldi va guruhlaro uncha farq kuzatilmadi. Shuni qayd etish kerakki, qon tarkibidagi ushbu elementlarning miqdori barcha guruhlarda yoz faslida qolgan boshqa fasllarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi.

12. Mustahkam konstitutsiyadagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning tirik vazni dag'al konstitutsiyadagi tengqurlarnikiga nisbatan 3 oylik yoshida 0,6 kg ($P \leq 0,05$), 6 oylikda-1,5 kg ($P \leq 0,05$), 12 oylikda -6,2 kg ($P \leq 0,01$), 15 oylikda-8,1 kg ($P \leq 0,01$), va 18 oylik yoshida 11,1 kg ($P \leq 0,01$) yuqori bo'ldi.

13. Sut va sut-go'sht ishlab chiqarish tipiga xos har bir bosh sigirdan laktatsiya davomida olingan sof foyda 7753,2 ming va 6701,1 ming so'mni tashkil etib, rentabellik darajasi 33,4% va 30,4% ga teng bo'lib, iqtisodiy samaradorlik go'sht-sut ishlab chiqarish tipidagi tengdoshlarnikidan 5,6 va 2,6% ga yuqori bo'ldi, xuddi shuningdek, mustahkam konstitutsiyaga ega sigirdan olingan sof foyda esa 7199,4 so'mni, rentabellik darajasi 32,1% ga teng bo'lib, iqtisodiy samaradorlik dag'al konstitutsiyadagi sigirlardan 4,9% ga yuqori bo'ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 05/30.12.2019. Qx.75.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ КАРАКУЛЕВОДСТВА И ЭКОЛОГИИ ПУСТЫНЬ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

КАЗАКОВА САХОБАТ ОДИЛБЕКОВНА

**СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОДУКТИВНОСТИ КРУПНОГО
РОГАТОГО СКОТА СИММЕНТАЛЬСКОЙ ПОРОДЫ В
ЗАВИСИМОСТИ ОТ РАЗЛИЧНЫХ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ И
КОНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ТИПОВ**

06.02.03 – Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2021.4.PhD/Qx824.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском Государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат доктора философии (PhD на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.uzkarakul.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Рузибоев Нураддин Рахимович

доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Досмухамедова Мухайё Хуснитдиновна

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Амиров Шавкат Кузибаевич

кандидат сельскохозяйственных наук, доцент

Ведущая организация:

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Защита диссертации состоится «20» 07 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 05/30.12.2019 Qx.75.01 по присуждению ученой степени доктора философии при научно-исследовательском институте каракулеводства и экологии пустынь (Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека 77. Научно-исследовательский институт каракулеводства и экологии пустынь, тел: (99866)233-32-79, факс (998660) 2333481; e-mail: uzkarakul30@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь (зарегистрировано под номером № 224). Адрес: 140154, Самарканд, ул. М.Улугбека, 77. Административное здание института, 1-этаж, тел: (99866) 2333279; факс: (99866) 2333481

Автореферат диссертации разослан «23» 06 2023 года
(реестр протокола рассылки № 3 «23» 06 2023 года)



Э.С.Шапгаков

Председатель научного совета по присуждению учёной степени, д.с.-х.н., доцент

З.С.Кличев

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёной степени, д.с.-х.н. (PhD), старший научный сотрудник

Д.Холмирзаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёной степени, д.с.-х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Скотоводство, считаясь одной из основных отраслей мирового животноводства, занимает первое место по объему производства животноводческой продукции и обеспечения населения молочной и мясной продукцией. "В странах с развитым животноводством как Голландия, США, Канада, Япония, Израиль и в других странах Европейского союза, уделяется большое внимание обеспечению коров полноценным кормлением, усовершенствованию продуктивных, репродуктивных, технологических свойств, использованию наследственного потенциала высокопродуктивных быков в искусственном осеменении, улучшению условий содержания. В результате этого в молочных стадах достигнуто увеличение поголовья высокопродуктивных коров, и улучшение их продуктивности».¹ В этой связи повышение продуктивности симментальской породы в разрезе производственных и конституциональных типов считается актуальным.

В странах Союза независимых государств, где развито скотоводство, уделяется особое внимание в селекции по разведению и размножению коров скороспелой симментальской породы по высокому генетическому потенциалу молочной и мясной продуктивности. Симментальская порода скота отличается от других пород по выходу молочного жира и белка, высокому коэффициенту молочности, конституциональным и экстерьерным особенностям, а также оплаты кормов продукцией и высокими показателями убойного выхода. На сегодняшний день в целях удовлетворения спроса населения на молоко и молочную продукцию уделяется большое внимание исследованиям в направлении повышения их продуктивности.

